



QASHQADARYO VILOYATI SHEVALAR TADQIQIGA DOIR AYRIM QAYDLAR

Normurodova Fayoza Boymurod qizi

Termiz davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Annontatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati shevalari doirasidagi ayrim masalalarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda shevaning qipchoq lahjasiga mansub ekanligi, shevaning olimlar tomonidan o'rganilish jarayonlari hamda shevaning fonetik, leksik va grammatik jihatlari doirasida ayrim fikrlar berildi, ularning boshqa o'zbek shevalaridan farqlari yoritilgan. Maqolada dialektlarning tarixiy shakllanishi va geografik omillarning tilga ta'siri ham ko'rib chiqilgan. Ushbu tadqiqot, hududiy dialektal o'ziga xosliklarni aniqlashga xizmat qiladi.

Annotation: This article is dedicated to analyzing certain aspects of the dialects within the Qashqadaryo region. The study highlights the affiliation of the dialect to the Kipchak group, examines the process of its investigation by scholars, and discusses some phonetic, lexical, and grammatical features of the dialect, outlining its distinctions from other Uzbek dialects. The article also considers the historical development of the dialects and the impact of geographical factors on language. This research contributes to identifying the unique characteristics of regional dialects.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo shevalari, dialekt, qipchoq lahjasi, filologik tadqiqot, korpus lingvistikasi, razmetkalash, shevalar taraqqiyoti, lingvistik teg, ekstralingvistik teg, areal lingvistika

Keywords: Qashqadaryo dialects, dialectology, Kipchak group, philological research, corpus linguistics, annotation, dialect development, linguistic tag, extralinguistic tag, areal linguistics.

Har bir shevaning til taraqqiyotida muhim o'rni bor. Shevalarning rivojlanish jarayoni til bilan chambarchas bog'liq bo'lib, zamonaviy tilshunoslikda shevalarning taraqqiy etishi, ular yuzasidan qilinadigan amaliy vazifalar, albatta, shevalarimizning saqlab qolinishi hamda rivojlanish bosqichlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu sohada E.D.Polivanov, I.I.Zarubin, V.V.Reshetov K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, G'ozi Olim Yunusov, F.Abdullayev, Sh.Shoabdurahmonov, A.Shermatov, N Rajabov, X.Doniyorov, Q.Muhammadjonov, D.Abdurahmonov, B.Jo'rayev, A.Jo'rayev, A.Ishayev, N.Shoimova, S.Rahimov, X.Fayziyeva,





N.Murodova singari olimlar o'zbek dialektologiyasining rivojlanishidagi qilgan xizmatlari beqiyos¹ ekanligini guvohi bo'lamiz.

Shuningdek, eng qadimiy yozma manbalar Kultegin, Bilga xoqon, O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari hamda shevalar tadqiqida eng asosiy manba hisoblangan M.Qoshg'ariyning "Devoni lug'ati turk", klassik adabiyotlarimizdan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarlari, xalq o'zaki ijodi va folklor namunalari o'zbek tili va uning shevalarini tadqiq qilish jarayonida o'rni beqiyos. Mahmud Qoshg'ariy shunday sayohatlari davomida turkiy tillar va ularning tarkibidagi dialektlarni tasniflar ekan, ularning lingvistik yoki geografik belgilar asosida emas, ularning etnik xususiyatlariga tayangan holda tasniflagan. Qishloq infratuzilmasidagi o'zgarishlarning tilga ta'sir doirasi, ommaviy axborot-kommunikatsiya, telefon, internet va hokazolarning etnik aholi tilidagi shevaning sayqallanayotganligi, adabiy tilning asta-sekin shevaning yo'qolib ketishiga sabab bo'layotganligi, keksa avlod tilida saqlanib turgan sheva elementlarining hamda hozirga qadar shaxsiy kutubxonalarda saqlanayotgan dialektal ma'lumotlarni o'zida jamlagan yagona dialektologik bazani tuzishni dolzarb masala sifatida ko'ndalang qo'yimoqda².

Qashqadaryo viloyati shevalariga kelsak, u o'zining o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadi. Bu sheva O'zbekistondagi eng qadimiy til manbalaridan biri bo'lib, qadimgi turkiy til izlarini o'zida saqlab qolgan. Bu hududdagi til o'zgarishlari va dialektal farqlar tarixiy jarayonlarga bog'liq. Qashqadaryo viloyatida yashovchi aholi shevasi qipchoq lahjasiga mansub. Lahjaning o'rganilish jarayoniga nazar tashlaydigan bo'lsak, avvalo, atamaning kelib chiqishiga to'xtalib o'tamiz. Bu so'zning semantikasida bo'sh, bo'mbo'sh, arziyas kabi ma'nolar borligini hisobga olib, "qipchoq" so'zining etimologiyasi qobiq, daraxtning qobig' shaklidan kelib chiqqan deyishimiz mumkin³.

Turkiy tillar oilasiga kiruvchi qipchoqlar Dashti Qipchoqdan (Bugungi Xitoy. Mo'g'iliston, Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston hududlaridan tortib) to Qora dengiz sohillardan Markaziy Yevropagacha bo'lgan joylarda yashagan xalq hisoblanadi.⁴

¹ Холова, М. А. (2020). Boysun shevasi korpusi: Ibtido (Boysun tumani "j" lovchi shevalar misolida). *Инновации в педагогике и психологии*, (SI-2№ 5).

² Холова М. Database of the Uzbek dialect online dictionary and notes on the translation of the Kipchak dialect into English // *Международный журнал искусство слова*. – 2023. – Т. 6. – №. 4.

³ Хайитқуллович, Н. Ф. (2023). "QIPCHOQ" ATAMASI VA QIPCHOQLAR. *Journal of new century innovations*, 41(2), 67-73.

⁴ Хайитқуллович, Н. Ф. (2023). "QIPCHOQ" ATAMASI VA QIPCHOQLAR. *Journal of new century innovations*, 41(2), 67-73.





Etimologik tadqiqotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "Qadimgi turkiy til lug'ati"da qipchoq so'zi qiv'caq, qovi, qovuq shaklida ifodalangan.⁵

Qipchoq lahjasi, asosan, "j" lovchi va "a"lovchi hisoblanadi. Qipchoq lahjasi hududiy jihatdan Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarini o'z ichiga oladi. Qipchoq shevasini A.Shermatov, T.Nafasov, A.Jo'rayev, A.Mamatqulov, A.Ishayev, A.Nosirov, Sh.Muhammadjonov, Q.Mamayev, S.Rahimov kabi olimlar o'rgangan. Ular o'z ilmiy izlanishlari orqali qipchoq lahjasining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bergan.⁶

Qashqadaryoda esa o'zbek xalq shevalarini birinchi bo'lib, har tomonlama sinchiklab o'rgangan olim E.D.Polivanovdir⁷. U1020-37-yillar davomida Qarshi, Samarqand, Toshkent kabi shahar shevalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borib, juda qimmatli asarlar yozdi. U Qashqadaryo xalq shevalaridan Qarshi shevasini ilk marta o'rgangan va bu viloyat shevalarini o'rganishni boshlab bergan shevashunosdir.⁸ Uning 1933 yilda bosilib chiqqan "O'zbek dialektologiyasi va o'zbek adabiy tili" degan asarida o'zbek shevalarining turli-tuman ekanligi o'sha davrda alohida qayd etilgan edi.⁹

Hozirgi davrga kelib esa Qashqadaryo aholisining shevasida ijtimoiy vaziyatlar yuzasidan shahar shevasiga moslashish jarayoni kuchli. Bu esa o'z navbatida qorishiq shevalarning yuzaga kelishiga hamda istemochi nutqidagi shevaning yo'qolishiga sabab bo'ladi.

Bu haqida tadqiqotchi olim N. Shoyimova shevalar haqida quyidagi fikrlarini bildiradi: "Shevalar vakillari nutqida qo'llanayotgan turfa lisoniy boylik to'planib, saralanib lug'at tarzida shakllantirilmasa, ular vaqt o'tishi bilan eskirishi, iste'moldan chiqishi, natijada ma'naviy va moddiy madaniyatning ajralmas bir qismi izsiz yo'qolib ketishi aniq"¹⁰. Bunday hollarning oldini olishing yagona usuli esa shevaning asl qatlamini saqlab qolishning amaliy jihatlarini tadqiq etishni talab etadi. Dunyoda ilm-fanning shiddat bilan jivojlanayotganini hisobga olsak, shevalarimiz yuzasidan qilinadigan amaliy vazifalarimiz talaygina. Shuningdek, bu borada birinchi qadam dialektlarni korpuslashtirish jarayoni hisoblanadi.

⁵ Xayitqulovich, N. F. (2023). "QIPCHOQ" ATAMASI VA QIPCHOQLAR. *Journal of new century innovations*, 41(2), 67-73.

⁶ Rahmonov, B. A. (2021). QASHQADARYO VA SURXONDARYO QIPCHOQ DIALEKT VA ETNOGRAFIYALARINI YAXLIT O'RGANISH MUAMMOLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 268-272.

⁷ "Образцы несингармонистических (иранизованных) говоров узбекского языка. Каршинский говор"

⁸ Jabborov, X., & Chariyeva, S. T. Qashqadaryo shevalarini o'rganilish tarixidan. *O'zbek tili imkoniyatlaridan amaliy foydalanish masalalari*, -B. 174.

⁹ Jabborov, X., & Chariyeva, S. T. Qashqadaryo shevalarini o'rganilish tarixidan. *O'zbek tili imkoniyatlaridan amaliy foydalanish masalalari*, -B. 174.

¹⁰.Шоимова Н. Шевалар луғатини яратиш - давр талаби // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами). Т., 2008. – Б. 202-204.





Dialektologik korpuslarning maqsadi dialektologiya, sotsiolingvistika, nutq madaniyati, fonetika-fonologiya, leksikologiya, grammatikaga oid tadqiqotlar hamda mahalliy aholining urf-odatlarini, tarixi va boshqa ko'plab sohalar uchun tadqiqotlar maydonini qulaylashtirish, kelajak avlodga qimmatli ma'lumotlarni yetkazish vazifasini bajarishdir.¹¹ Bu borada ilk qadamlar qo'yildi, xususan Muyassar Xolova¹² o'z tadqiqoti doirasida Boysun shevasi misolida shevalar korpusini yaratdi. Korpus bu ma'lum maqsadda yig'ilgan matnlar majmuini tashkil etuvchi til birliklari yig'indisi, tabiiy tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og'zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga dasturiy ta'minot asosida joylashtirilgan online yoki offline tizimda ishlaydigan matnlar jamlanmasi¹³ hisoblanadi.

Galdagi muhim vazifalar esa shevalarning fonetik, morfologik, leksik tahlili va ularning tarqalishi zonalari, ya'ni qaysi hududda qay tartibda qo'llanishi hamda bu tahlil jarayonlarini razmetkalash boschigi hisoblanadi.

Razmetkalash deganda matn va uning komponentlariga maxsus teglarni biriktirib chiqish nazarda tutiladi. Maxsus teglar ikki xil bo'ladi: lingvistik teglar va ekstralingvistik (tashqi) teglar¹⁴. Lingvistik teglar matn elementlarining leksik, grammatik va shunga o'xshash boshqa xususiyatlarini tavsiflaydigan ma'lumotlardan iboratdir. Ekstralingvistik teglar esa muallif haqidagi va matn haqidagi ma'lumotlarni (muallif, nomlanishi, nashr yili va joyi, janr, tematika va hokazo) tavsiflaydi¹⁵. Umuman olganda Qashqadaryo shevalari doirasida nazariy ma'lumotlar anchagina tadqiq etilgan. Endigi qilinadigan vazifalar esa ularning amaliyotini tadqiq etish lozim. Qashqadaryo viloyati shevalari O'zbekiston hududidagi dialektal rang-baranglikning yorqin namunasi. Ushbu shevalar fonetik, leksik, va grammatik xususiyatlari bilan boshqa hududlardagi shevalardan ajralib turadi. Bunday izlanishlar hududiy dialektlarning o'ziga xosligini saqlash, ular asosida ta'lim resurslarini boyitish hamda milliy madaniy merosni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹¹ Ashirboyev S., Turdialiyev A. O'zbek shevalari leksikasini korpusga joylashtirishning dasturiy ta'minoti // Computer linguistics: problems, solutions, prospects. – 2024. – T. 1. – №. 1.

¹² Холова М. А. Boysun shevasi korpusi: Ibtido (Boysun tumani "j" lovchi shevalar misolida) //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2020. – №. SI-2№ 5.//

¹³ V.Zaxarov, B. Mengliyev, SH. Hamroyeva. Korpus lingvistikasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2023

¹⁴ Ashirboyev, S., & Turdialiyev, A. (2024). O'ZBEK SHEVALARI LEKSIKASINI KORPUSGA JOYLASHTIRISHNING DASTURIY TA'MINOTI. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).

¹⁵ Karshiev, A. B., S. A. Karimov, and M. S. Tursunov. "O'zbek tili milliy korpusi uchun matnlarni formatlash." *INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED ISSUES OF DIGITAL TECHNOLOGIES* 1.1 (2022): 58-63.)





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Холова, М. А. (2020). Boysun shevasi korpusi: Ibtido (Boysun tumani “j” lovchi shevalar misolida). *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, (SI-2№ 5).
2. Холова М. Database of the Uzbek dialect online dictionary and notes on the translation of the Kipchak dialect into English // *Международный журнал искусство слова*. – 2023. – Т. 6. – №. 4.
3. Хаитқуллович, Н. Ф. (2023). “Qipchoq” atamasi va qipchoqlar. *Journal of new century innovations*, 41(2), 67-73.
4. Rahmonov, В. А. (2021). Qashqadaryo va surxondaryo qipchoq dialekt va etnografizmlarini yaxlit o'rganish muammolari. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 268-272.
5. .“Образцы несингармонистических (иранизованных) говоров узбекского языка. Каршинский говор”/
6. Jabborov, X., & Chariyeva, S. T. Qashqadaryo shevalarini o'rganilish tarixidan. *o'zbek tili imkoniyatlaridan amaliy foydalanish masalalari*, 174
7. Шоимова Н. Шевалар луғатини яратиш - давр талаби // *Тилшуносликнинг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами)*. Т.,2008. 202-204-бетлар
8. Ashirboyev, S., & Turdaliyev, A. (2024). O'zbek shevalari leksikasini korpusga joylashtirishning dasturiy ta'minoti. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
9. V.Zaxarov, B.Mengliyev, Sh.Xamroyeva korpus lingvistikasi. -O'quv qo'llanma. Toshkent-2023
10. <http://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences2/article/view/167/160>
11. Karshiev, A. B., S. A. Karimov, and M. S. Tursunov. "O'zbek tili milliy korpusi uchun matnlarni formatlash." *INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED ISSUES OF DIGITAL TECHNOLOGIES* 1.1 (2022): 58-63.)

